

ISSN: 2181-1040

DOI: 10.26739/2181-1040

tadqiqot.uz/renaissance



JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL
ASIAN RENAISSANCE**



**VOLUME 6
ISSUE 2**

2025

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 6, СОН 2

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ
ТОМ 6, НОМЕР 2

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE
VOLUME 6, ISSUE 2



ТАШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:

МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, профессор Мирзо Улуғбек
номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари доктори, доцент Мирзо Улуғбек номидаги
Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Мирзо
Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети (Ўзбекистон)

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,
профессор (Ўзбекистон)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадиий
академияси академиги, санъатшунослик фанлари
доктори, профессор (Ўзбекистон)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси
филология фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

КЛЭР РООСИЕН

Йел университети Славян тиллари ва адабиётлари
кафедраси PhD фалсафа доктори (АҚШ)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети
профессори (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий
университети профессор, филология фанлари доктори,
(Ўзбекистон)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,
тарих фанлари доктори (АҚШ)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Андижон давлат университети
фалсафа фанлари доктори, профессор. (Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессор,
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навоий давлат педагогика институти
фалсафа фанлари доктори, профессор (Ўзбекистон)

ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети доценти, социология
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
доцент, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
(Ўзбекистон)

РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Главный редактор:

МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

доктор философских наук, профессор

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

доктор философских наук, доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

доктор философии (PhD), Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета Узбекистана, профессор (Узбекистан)

ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академия наук Узбекистана, академик Академии художеств Узбекистана, доктор искусствоведения, профессор (Узбекистан)

МАРИАННА КАМП РУТЦ

профессор Центра Евразийских исследований Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ISFT института, доктор политических наук (Узбекистан)

ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Международной исламской академии Узбекистана, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КЛЭР РООСИЕН

PhD доктор кафедры Славянских языков и литературы Йельского университета (США)

АНТонио АЛОНСО МАРКОС

профессор Университета CEU имени Сан Пабло (Испания)

ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор филологических наук, профессор (Узбекистан)

КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

профессор Университета Хофстра, доктор исторических наук (США)

ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

профессор Казахский национальный университет имени аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

профессор Андижанский государственный университет, кандидат философских наук. (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

профессор Наманганский государственный технический университет, доктор философских наук (Узбекистан)

САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

профессор Навоийский государственный педагогический институт, доктор философских наук, (Узбекистан)

ДЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

доцент Наманганского государственного университета, доктора философии (PhD) по социологическим наукам (Узбекистан)

ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

доцент Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии (PhD), по философским наукам (Узбекистан)

ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доктор философии по философским наукам (PhD) (Узбекистан)

РЎЗИБОВЕ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ЎҒЛИ

докторант Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Хуршид Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Chief Editor:

MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Doctor of Philosophical Sciences (DSc), Professor

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Doctor of Philosophical Sciences, Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor:

KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Doctor of Philosophy (PhD), National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek (Uzbekistan)

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan,
Academician of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of Art History, Professor (Uzbekistan)

MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies at Indiana University, Doctor of History (USA)

DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute, Doctor of Political Sciences (Uzbekistan).

ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

International Islamic Academy of Uzbekistan, Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

CLAIRE ROOSIEN

Department of Slavic Languages and Literature of the Yale University, PhD (USA)

ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU named after San Pablo (Spain)

SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University, Doctor of Historical Sciences (USA)

GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University, Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Andijan State University, Doctor of Philosophical Sciences, professor. (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University, Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

the Nava'i State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophical Sciences, Professor (Uzbekistan)

JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Docent of Namangan State University, Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences (Uzbekistan)

ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD), in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

SHUKUROV AKMAL SHAROFOVICH

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Khurshid Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. WWW.TADQIQOT.UZ

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МҲНДАРЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Aleksandr Naymark

MINGO‘RIK BITIKTOSHI: O‘RTA ASR TOSHKENTINING TANGRICHIKKA OID YODGORLIGIMI?.....7

2. Nazarova Shahnozaxon

MILLIY HURRIYAT SHE‘RIYATIDA AN‘ANAVIY TIMSOLLAR POETIKASI.....23

3. Yusupova Dildora

“ISLOM MODERNIZMI” VA “ISLOMNI MODERNIZATSIYA QILISH”
JARAYONLARINING FALSAFIY TAHLILI.....36

4. Hakimov Nazar

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAKTAB TA‘LIMI TARAQQIYOTIGA INNOVATSION
YONDASHUV.....44

5. Usarova Feruza

JADIDLAR G‘OYASINING YANGI O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI BILAN HAMOHANG
JIHATLARI.....52

6. Amirov Azamat

YANGI O‘ZBEKISTON TARIXIDA JADIDCHILIK TALIMOTINI RAQAMLASHTIRISH
MASALALARI.....60

7. Филиппов Ольгерд

ЦИФРОВОЙ ГУМАНИЗМ КАК ПАРАДИГМА ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ.....66

8. Ashrapov Ravil

READING CULTURE IN MODERN LIFE OF UZBEKISTAN.....79

9. Muminkhujayev Abrorkhuja

INTEGRATING INSTRUCTIONAL TECHNOLOGY AND AI TO ENHANCE WRITING AND
SPEAKING SKILLS OF DIGITAL RESIDENTS IN SPECIALIZED SCHOOLS.....87

ISSN: 2181-1040

www.tadqiqot.uz

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ**ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ****JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE****Amirov A.O.**

AL-9224104729 “Jadidchilik ta’limoti milliy strategik g‘oyalarini ommalashtirishning konstruktiv transditsiplinar modelini yaratish” amaliy loyiha katta ilmiy xodimi f.f.n.dotsent
E-mail: amirovazamat539@gmail.com

**YANGI O‘ZBEKISTON TARIXIDA JADIDCHILIK TALIMOTINI
RAQAMLASHTIRISH MASALALARI**

<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17418818>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda ilm-fan va ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar kontekstida jadidchilik ta’lim merosini raqamlashtirish masalalari tahlil etilgan. Jadidchilik harakatining tarixiy xususiyatlari, uning XX asr boshlarida milliy ma’rifat va ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda tutgan o‘rni o‘rganilgan. Jadidlar pedagogik g‘oyalarini saqlash, tizimlashtirish va ommalashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Muallif jadidchilik merosini raqamli ta’lim makoniga integratsiya qilishning ahamiyatini ta’kidlaydilar hamda yoshlar va ilmiy jamoatchilik orasida jadidchilik ta’limiy tajribasini o‘rganish va tarqatishga qaratilgan raqamli platformalar, ma’lumotlar bazalari va interaktiv resurslar yaratish istiqbollari belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, ta’limni raqamlashtirish, ta’limiy meros, Yangi O‘zbekiston, pedagogik g‘oyalar, raqamli texnologiyalar, modernizatsiya, raqamli platformalar, interaktiv resurslar, ta’lim tarixi.

A.O. Amirov

AL-9224104729

“Development of a Constructive Transdisciplinary Model for Promoting the National Strategic Ideas of Jadidism” Senior Research Fellow of the Applied Project, PhD, Associate Professor
E-mail: amirovazamat539@gmail.com

**ISSUES OF DIGITALIZATION OF JADIDISM EDUCATION IN THE HISTORY
OF NEW UZBEKISTAN**

ABSTRACT

This article explores the issues of digitalizing the educational heritage of Jadidism in the context of ongoing reforms in science and education in New Uzbekistan. It analyzes the historical features of the Jadid movement, its contribution to the development of national enlightenment, and the modernization of the education system in the early 20th century. Special attention is given to the potential use of digital technologies for the preservation, systematization, and promotion of Jadid pedagogical ideas. The author emphasizes the importance of integrating the Jadid legacy into the digital educational space and outline prospects for the development of digital platforms, databases,

and interactive resources aimed at studying and disseminating the educational experience of Jadidism among youth and the academic community.

Keywords: jadidism, digitalization of education, educational heritage, New Uzbekistan, pedagogical ideas, digital technologies, modernization, digital platforms, interactive resources, history of education.

Амиров А.О.

AL-9224104729 «Разработка конструктивной
трансдисциплинарной модели популяризации
национальных стратегических идей джадидского учения»
Старший научный сотрудник проекта, PhD, доцент
E-mail: amirovazamat539@gmail.com

ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ ДЖАДИДИЗМА В ИСТОРИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются вопросы цифровизации образовательного наследия джадидизма в контексте современных реформ в сфере науки и образования в Новом Узбекистане. Проанализированы исторические особенности джадидского движения, его вклад в развитие национального просвещения и модернизации системы обучения в начале XX века. Особое внимание уделено возможностям использования цифровых технологий для сохранения, систематизации и популяризации педагогических идей джадидов. Автор подчеркивает актуальность интеграции джадидского наследия в цифровое образовательное пространство, а также обозначают перспективы разработки цифровых платформ, баз данных и интерактивных ресурсов, направленных на изучение и распространение джадидского образовательного опыта среди молодежи и научного сообщества.

Ключевые слова: джадидизм, цифровизация образования, образовательное наследие, Новый Узбекистан, педагогические идеи, цифровые технологии, модернизация, цифровые платформы, интерактивные ресурсы, история образования.

Kirish. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jarayonida milliy ma’naviyat, tarixiy xotira va ma’rifiy merosning qayta tiklanishi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilmoqda. Yangi O‘zbekiston tarixida Jadidchilik talimotini raqamlashtirish raqamlashtirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o‘rganish raqamli texnologiyalar integratsiyasi ijtimoiy hayotning turli jabhalarini o‘zgartirayotgan zamonaviy davr sharoitida juda dolzarbdir. “Bundan tashqari, bugungi kunda sodir bo‘layotgan sivilizatsiya o‘zgarishlari ham odamlarning g‘oyalariga, ham hayotiy qadriyatlarga munosabatiga tasir ko‘rsatmoqda. Insoniyat sivilizatsiyasining zamonaviy global muammolari insoniyatning qadriyat yo‘nalishlari bilan chambarchas bog‘liqligini bugungi kunning dolzarb masalalaridan bir hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda ham O‘zbekiston uchun ham, barcha sivilizatsiyalar modellari uchun ham ijtimoiy-madaniy munosabatlarni yangilash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning zamonaviy siyosatida Uchinchi Renessans siyosati maqsadli taraqqiyot yo‘li sifatida olinib uning tarkibiy qismi sifatida XIX asr so‘nggi va XX boshida milliy strategik, siyosiy va g‘oyaviy harakat bo‘lgan jadidchilikni o‘rganish, targ‘ib etish, asosiy mafkuraviy mexanizmlarni real hayotga joriy etish bo‘yicha ijtimoiy siyosat amal qila boshladi. O‘zbekiston Uchinchi Renessans poydevorini qurishga intilayotgan bir paytda kishilik jamiyati taraqqiyotining yaxlit mohiyatini idrok etish orqali tub burilish davrlari yaratilishi mumkinligini anglab yetish muhim. O‘z mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob ijtimoiy-siyosiy fenomen bo‘lgan jadidchilik g‘oyasining shakllanishi va taraqqiyotiga doir dunyoning bir qator mamlakatlarida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, ushbu harakat namoyandalarining Markaziy Osiyo hududida milliy davlatchilik va mintaqaviy o‘ziga xoslikni, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga qo‘shgan ulkan hissasini konseptual va tizimli asosda atroflicha o‘rganish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda[1].

Bilamizki, mamlakatimiz o'zining bugungi taraqqiyot darajasiga erishgunga qadar juda ko'plab ijtimoiy tarixiy jarayonlarni boshidan kechirgan. Bu jarayonlar qadimgi davrdan tortib XX asrning eng og'ir va taxlikali kunlarini o'z ichiga oladi. Ammo bu jarayonlar mamlakatimizda ilm – ma'rifatning tomomila yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'la olmadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyoti jarayonida milliy ma'naviyat va ta'lim-tarbiya masalalari davlat siyosati darajasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy meros, xususan, jadidchilik harakatining g'oyalari va ta'lim-tarbiya tizimi bugungi kunda qayta tadqiq qilinib, zamonaviy talablar asosida jamiyat hayotiga tatbiq etilmoqda. Jadidchilik harakati XX asr boshlarida paydo bo'lib, Turkistonda ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish va yangi zamon ta'lim tizimini shakllantirishda muhim qadam bo'lgan. Endi esa ushbu ta'limotni raqamli texnologiyalar yordamida qayta jonlantirish va yosh avlodga yetkazish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jadidchilik – Turkistonda milliy uyg'onish va ma'rifat harakatining asosiy yo'nalishi sifatida shakllandi. Uning asoschisi sifatida Ismoilbek Gasprinskiy ko'rsatiladi. Uning "usuli savtiya" yoki "usuli jadid" maktablari orqali turli fanlarni zamonaviy uslubda o'qitish yo'lga qo'yildi. Jadid maktablarida geografiya, tarix, tabiatshunoslik, adabiyot, matematika kabi fanlar turli interaktiv usullar bilan o'qitildi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida milliy o'zlikni anglash, milliy identifikatsiya jarayonlarini kuchaytirishda milliy birlikni shakllantiruvchi tarixiy ong mavzusiga zarurat mavjud edi. Bunda o'zbek xalqi tarixi Sharq sivilizatsiyasi tarixi bilan uzviy bog'lanib, uning tadrijiy rivojida XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllanib, keng tarqalgan ma'rifatparvarlik oqimi va jadidchilik ta'limotiga e'tibor qaratiladi. Jadidchilik harakati vakillari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar va amalga oshirilgan ishlar qay darajada millat omilini kuchaytirib berdi? Jadidchilikning islohotchilik harakatlarida millat omili orqali inson omilini tashkil etish, aniqlash, ta'lim, fan va madaniyat milliy davlat kontekstida yangilash g'oyasi ustuvorlik qilgan. Bu ulkan islohotchilik harakati O'zbekiston mustaqilligining birinchi qadamlarida ham o'z natijasini bera boshladi. Xususan A.Fitratning "Islohoti Buxoro", "Rahbari najot", "Sharq siyosati", "Turkistonda ruslar" nomli asarlarini tom ma'noda, yangi jamiyat va yangi insonni yaratish maqsadiga xizmat qiluvchi, mamlakat modernizatsiyasini amalga oshirishga qaratilgan strategik loyiha sifatida baholash mumkin. Ammo ob'ektiv ijtimoiy-siyosiy to'siqlar tufayli jadidchilar tomonidan boshlangan Turkistonda milliy davlatchilikni yaratishga qaratilgan ulkan islohotchilik harakati tugallanmay qoldi.

O'zbekiston Respublikasi deyarli bir asr sobiq ittifoqning xom ashyo bazasi, agrar zona sifatida ta'minotchi hudud vazifasini o'tadi. Ittifoq davrida bunyod etilgan magistral yo'llar, ishlab chiqarish tizimi, zaxira omborlari va boshqa ko'plab infrastruktura ob'ektlari qizil imperiya iqtisodiyoti uchun yaratilgan qulayliklar edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan bildirilgan fikrlarda respublika barcha asosiy iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ham ancha orqada bo'lib, mamlakatda oxirgi o'rinlardan birida turgani qayd etiladi: "Biz bu raqamlarni ilgari ham necha marta aytganmiz, ammo bugun ularni yana bir bor idrok etmoq kerak. O'zbekiston har kishi boshiga yalpi ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha mamlakatda 12-o'rinda turibdi, aholi jon boshiga milliy daromad ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatkich esa Ittifoqdagi o'rtacha darajadan ikki hissa past. Sanoatdagi mehnat unumdorligi jihatidan respublika mamlakatdan 40 foiz, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdorligi jihatidan esa ikki barobar orqada qolmoqda. O'zbekiston aholisi o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman, mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 mln. so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan sal ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmayapti" [2,3].

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillarida, 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lgan davrda ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e'tibor markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi.

Yurtimiz tarixida taraqqiyotning “O‘zbek modeli” qabul qilinishi asosida davlat qurilishining iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy asoslari yo‘lga qo‘yilishi, xususiy mulkchilikning shakllanishi, uzluksiz ta’lim tizimining ishlab chiqilishi hamda joriy etilishi, yer islohotlarining amalga oshirilishi tadrijiy ravishda amalga oshirildi. Bundan tashqari, milliy qonunchilik tizimi ishlab chiqildi, bank-moliya tizimi yaratildi, tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalar yo‘lga qo‘yildi. Tizimli vujudga kelgan o‘zgarishlar sifatida: 1) iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish; 2) qonun ustuvorligini ta’minlash; 3) davlatning bosh islohotchi sifatidagi boshqaruvchilik rolini tan olish, 4) mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; 5) siyosiy va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish tamoyillaridan iborat taraqqiyotning “O‘zbek modeli” muhim strategik ahamiyat kasb etishini aytilish mumkin.

Zamonaviy davr tarix falsafasi qonuniyatida O‘zbekistonda ro‘y bergan o‘zgarishlarda sikllilik va tadrijiylik tamoyillari yetakchilik qilganini ko‘rish mumkin. O‘zbekistondagi modernizatsiya jarayonlari tadqiqotida mustaqillik yillarida respublikamizda qabul qilingan maxsus strategik taraqqiyot dasturlarini 3 davrga ajratish mumkin[3, 118]. Birinchisi, taraqqiyotning “O‘zbek modeli” qabul qilinishi bilan bog‘liq davr. Bu davr, asosan, milliy davlatchilik tuzilmalari, qonunchilik, milliy o‘zlikning anglanilishi, mustamlakachilik asoratlarining bartaraf qilinishi, yangicha iqtisodiy-moliyaviy tuzilmalarning tashkil topishi kabi qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Ikkinchisi, “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ning qabul qilinishi bilan bog‘liq ikkinchi davr bosqichi. Bu bosqichda davlat boshqaruvi, qonunchilik, axborot sohasi, iqtisodiyotni liberallashtirish, saylov tizimi, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish kabilar bilan bog‘liq mamlakatimizni modernizatsiyalashga qaratilgan qator tashkiliy institutsional-huquqiy tub islohotlar amalga oshirildi. Birinchi davrda davlatchilik asoslari shakllantirilgan bo‘lsa, ikkinchi davrda demokratik fuqarolik jamiyati tuzilmalarini takomillashtirish bilan bog‘liq fundamental g‘oyalar ilgari surilib, amalga oshirildi.

Uchinchisi, “Harakatlar strategiyasi” qabul qilinishi bilan bog‘liq uchinchi davr bosqichi. Bu bosqichda respublikamizda kechayotgan modernizatsiya jarayonlarida mamlakat hududidagi real muammolarni hisobga olgan holda umumjahon standartlari darajasida islohotlar davriga qadam qo‘yildi. Ayniqsa, bu davrda respublikamiz modernizatsiya modelida innovatsion modelning ta’siri oshdi. Bundan tashqari, jadallashgan modernizatsiyaning muhim shartlaridan biri bo‘lgan mamlakatning yaqin va uzoq qo‘shnilarga ochiqligi xususiyati ro‘yobga chiqa boshladi. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning yangi davr siyosatida zamonaviy tarix falsafasini shakllantiruvchi siyosat postmodernizm va uni tashkil qiluvchi modernizatsiya tizimi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki modernizatsiya – an’anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o‘tish makroprotsessi.

To‘rtinchi davr – 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” avvalo inson qadrini yuksaltirish, ochiq va shaffof jamiyat qurish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish kabi maqsadlarga yo‘naltirilgan. Bu davrda nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratildi, inson huquqlari va adolatli sud himoyasi ta’minlanishiga e’tibor kuchaytirildi. Davlat idoralari ochiq ma’lumotlar asosida jamoatchilik oldida hisobdorlikka o‘tmoqda, ijtimoiy sohada kambag‘allikni qisqartirish va aholini himoya qilishning yangi mexanizmlari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar asosida davlat boshqaruvi takomillashtirilmoqda, xalqaro hamkorlik va qo‘shnilarga ochiqlik tamoyili yangi bosqichga ko‘tarildi.

Hozirgi davrda O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Elektron hukumat”, “E-learning” platformalari, IT parklar, raqamli darsliklar va multimedia resurslar joriy etilmoqda. Ushbu jarayonda jadidchilik g‘oyalarini zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish masalasi kun tartibiga chiqmoqda.

Bu davrning eng muhim jihati – yangi O‘zbekistonni inson qadri ustuvor bo‘lgan, ochiq, demokratik va raqamli jamiyat sifatida shakllantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlardir.

Evolutsion rivojlanish jarayonlari, ya’ni modernizatsiya – islohotlar va innovatsiyalar orqali amalga oshiriladigan doimiy jarayonning bir turi, bu bugungi kunda postindustrial jamiyatga o‘tishni anglatadi.

Yu.I.Semyonovning evolyutsion stadial modernizatsiya ta'limoti, madaniy antropologiya klassiklari A. Kreber, L. Uayt asarlarida ham o'z zaminiga ega bo'lgan. Madaniy antropologiyada ko'plab an'anaviy mahalliy madaniyatlarning evolyutsiyasi, asosan, ikki shaklda ko'rib chiqilgan:

1) nisbatan sodda jamiyatlardan tobora murakkablashib borayotgan jamiyatlarga nisbatan progressiv tabiatning bosqichma-bosqich oqilona rivojlanishi sifatida. Ushbu tushuncha modernizatsiya jarayonlarining klassik tushunchasi bilan o'zaro bog'liq;

2) har xil turdagi madaniyatlarning ko'p yo'nalishli rivojlanishi sifatida. Ikkinchi holatda, modernizatsiya jarayonlarining o'ziga xosligi, natijada, paydo bo'ladigan zamonaviylik variantlariga ko'proq e'tibor qaratiladi. Modernizatsiya zamonaviy tarixiy jihatdan aniqlangan turlarni amalga oshirish sifatida qaraladi.

Odatda, modernizatsiyani amalga oshirishda tashabbuskor vazifasini bajaruvchi sifatida davlat bu jarayonni muvofiq tarzidagi konsepsiyalar, strategiyalar, huquqiy va ma'muriy resurslar bilan ta'minlaydi.

Mamlakatimizda modernizatsiyani amalga oshirishda, aksariyat tadqiqotchilarning xulosasiga ko'ra, Harakatlar strategiyasi dasturi jadallashgan modernizatsiyaning usuli sifatida qabul qilindi. Bu usul mustaqillikning ikkinchi davridan boshlab, tez samara beruvchi mexanizmlar vositasida mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy, sotsiomadaniy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda izchil qo'llanilmoqda. Shuning uchun "Harakatlar strategiyasi" qabul qilinishini respublikamizni modernizatsiyalash jarayonlari tarixidagi mutlaq yangicha bosqich, aniqrog'i, tubdan burilish yasovchi davr, deya atash mumkin.

"Harakatlar strategiyasi": I. Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari; II. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlari; III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari; IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari; V. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlar deb nomlangan besh yirik yo'nalish modernizatsiyasini qamrab oladi.

O'zbekistonda yangilanayotgan modernizatsion jamiyatning mezoni sifatida fan taraqqiyotiga alohida e'tibor berildi. Yurtimizda Innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilishi modernizatsiyaning mazmun-ma'nosini tushuntirib beruvchi tizim tashkil etilgani, bu mezonning keng joriy qilinayotganligidan dalolat beradi. Ushbu tuzilma vazirlik tizimida yurtimizda kechayotgan keng islohotlar jarayoniga ilmiy asosda yondashish, fan, ta'lim va ishlab chiqarish sohalarini mutanosiblashtirish, shuningdek, ayni yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi tashkilot va muassasalar ishlarini o'zaro muvofiqlashtirish bilan shug'ullanadi.

Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli farmoni ham yurtimizda kechayotgan ilm-fan orqali modernizatsiyalash siyosatining tadrijiy davomiyligini ko'rsatadi[4]. Ushbu Farmonni ma'lum ma'noda, uzluksiz ta'lim dasturining sifat jihatdan yangi darajasi deyish mumkin. Unga ko'ra, "Mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g'oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo'lgan, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari zamonaviy kasb egalari bo'lishlari uchun ularda zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirish;

dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, darslik va o'quv qo'llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o'quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish" [4] kabi vazifalar xalq ta'limi bo'g'ini bilan oliy ta'limni bog'lab, jamiyatni yangi darajaga olib chiqish uchun ilm-fandan asosiy mezon sifatida foydalanishni belgilab beradi. Unda ta'kidlanishicha, "So'nggi yillarda mamlakatda ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog'cha tarbiyalanuvchilari, o'quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o'rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, milliy ta'lim-tarbiya tizimining amaldagi holati uni zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, yoshlarni yuksak bilim-ma'rifat egalari, jismoniy va ma'naviy sog'lom insonlar etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining

rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda" [4].

Xulosa qilib aytganda, Jadidchilik ta'limotini raqamlashtirish zarurati quyidagi omillar bilan izohlanadi. Jahonda ma'naviy merosni raqamlashtirish tajribasi mavjud. Masalan, Turkiyada Usmoniy davri manbalarini raqamlashtirish orqali yoshlar tarix bilan yaqindan tanishmoqda. O'zbekistonda ham jadidchilik asarlari elektron shaklga o'tkazilib, mobil ilovalar orqali targ'ib qilinishi mumkin. Bu jarayonda milliy kutubxonalar, arxivlar va ilmiy muassasalarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Jadidlar ilgari surgan g'oyalar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Masalan, ular ta'limda fan va madaniyat uyg'unligini ta'minlashga intilganlar. Bugungi kunda ham ta'limda STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) va gumanitar fanlarni uyg'un ravishda o'qitish orqali jadidchilik g'oyalari amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, gender tengligi va ayollarning ta'limdagi ishtiroki jadidlar g'oyalaridan ilhomlanib zamonaviy dasturlarda qo'llanishi zarur. Milliy potentsialni ilm-fan asosida ta'minlagan holda integrallashish, tarixiy xotira va bugungi kun bunyodkorligi ruhini birlashtirgan holda modernizatsion jamiyatni rivojlantirishdan iborat. O'zbekistonning mustaqillik davridan keyingi "O'zbek modeli", "Harakatlar strategiyasi" va "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" dan iborat bo'lgan taraqqiyot modellari evolyusion-stadial modernizatsion modeli ko'rinishida zamonaviy rivojlanayotgan davlatlarning intensiv rivojlanish yo'lini ta'minlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/6919>
2. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -Toshkent: O'zbekiston, 2011. -B. 3.
3. Xojiev T.N. Modernizatsiya nazariyalari evolyusiyasining falsafiy-konseptual tahlili. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi - Toshkent: O'zbekiston, 2019. -B. 118.
4. <https://lex.uz/docs/5085999>

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

AL-9224104729 “JADIDCHILIK TA’LIMOTI MILLIY STRATEGIK G‘OYALARINI OMMALASHTIRISHNING KONSTRUKTIV TRANSDITSIPLINAR MODELINI YARATISH” AMALIY LOYIHASI ASOSIDA TAYYORLANDI.

**ПОДГОТОВЛЕНО В РАМКАХ ПРИКЛАДНОГО ПРОЕКТА AL-9224104729
“СОЗДАНИЕ КОНСТРУКТИВНОЙ ТРАНСДИСЦИПЛИНАРНОЙ МОДЕЛИ
ПОПУЛЯРИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ИДЕЙ
ДЖАДИДИЗМА”.**

**PREPARED BASED ON THE APPLIED PROJECT AL-9224104729: “CREATING
A CONSTRUCTIVE TRANSDISCIPLINARY MODEL FOR POPULARIZING THE
NATIONAL STRATEGIC IDEAS OF JADIDISM”.**

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000